

Konstitutsiya – xalqimizning ozod va farovon hayotining tayanchidir. U – kelajak avlodlarga yorug‘ istiqbol poydevordir

**Toshkent davlat yuridik universiteti nomidagi
Namangan viloyati akademik litseyining 2-bosqich
201-guruh o‘quvchisi: Xomidov Omadtillo Farxodjon o‘g‘li**

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada baxtimiz qomusi sanalgan Konstitutsiyamizning hayotimizda tutgan o‘rni va ahamiyati hamda Konstitutsiyaviy islohotlar hususida, 2023-yil 30-aprelda o‘tkazilgan Referendum natijalari, xalqimizning undagi ishtiroki, Yangilangan Konstitutsiyada Oliy ta‘lim sohasiga oid o‘zgarishlar hususida, Yangilangan Konstitutsiyamizning hozirgi kunda mamlakatimiz rivoji qo‘shayotgan hissasi, iqtisodiy-siyosiy maydonlardagi o‘rni, axborot erkinligi borasidagi muhim normalar haqida va konstitutsiyaning yoshlar hayotidagi o‘rni va qanchaluk darajada kerakli ekanligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Farmoyish, yosh tadbirkor, ijod maktabi, biznes loyihalar, asosiy hujjat, kadrlarni tayyorlash, referendum, strategiya, iqtisodiyot, siyosat, milliy mafkura, rennesans, modda, axborot, siyosiy maydon

Конституция-основа свободной и благополучной жизни нашего народа. Это основа светлого будущего для будущих поколений.

АННОТАЦИЯ

В этой статье рассматриваются роль и значение нашей Конституции, которую считают источником нашего счастья, в нашей жизни, а также конституционные реформы, результаты референдума, проведенного 30 апреля 2023 года, участие в нем нашего народа. , изменения в сфере высшего образования в Обновленной Конституции, действующая версия Обновленной Конституции, вклад в развитие нашей страны, экономики и общества место в областях, важные нормы относительно свободы информации и место конституции в жизни молодых людей и насколько это необходимо.

Ключевые слова: Приказ, молодой предприниматель, школа творчества, бизнес-проекты, основной документ, подготовка кадров, референдум, стратегия,

экономика, политика, национальная идеология, ренессанс, содержание, информация, политическое пространство.

**The Constitution is the foundation of the free and prosperous life of our people.
It is the foundation of a bright future for future generations.**

ANNOTATION

In this article, the role and importance of our Constitution, which is considered the source of our happiness, in our lives, as well as constitutional reforms, the results of the Referendum held on April 30, 2023, the participation of our people in it, changes in the field of higher education in the updated Constitution, Updated The contribution of our constitution to the development of our country, its role in the economic and social spheres, the important norms of freedom of information, and the role of the constitution in the life of young people and how necessary it is are discussed.

Key words: Order, young entrepreneur, school of creativity, business projects, main document, personnel training, referendum, strategy, economy, politics, national ideology, renaissance, substance, information, political space

Demokratik huquqiy davlatning eng muhim belgilaridan biri – barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligini ta’minlashdir. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi, birinchidan, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qonunning qat’iyan hukmronligini, hech kim, hech bir davlat organi, mansabdor shaxs, tadbirkor yoki boshqa biror fuqaro qonunga bo‘ysunish majburiyatidan xoli bo‘lishi mumkin emasligini anglatadi. Ikkinchidan, Konstitutsiya va qonun ustuvorligi shuni ifodalaydiki, asosiy ijtimoiy, eng avvalo iqtisodiy va siyosiy munosabatlar faqat qonun yo‘li bilan tartibga solinadi, uning barcha ishtirokchilari esa hech bir istisnosiz huquq normalarini buzganligi uchun huquqiy javobgarlikka tortiladilar.[2]

Shu bois O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasi 1- bandida “O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi” va shu moddaning 5-bandida esa “Davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish yuritadilar” deb belgilab qo‘yilgan. Konstitutsiyaning ana shu qoidalarida ma’nomazmun bor. Belgilab qo‘yilganidek, Konstitutsiya va qonun oldida barcha birday mas’uldir. Mamlakat qonunlariga jami fuqarolar barobar bo‘ysunmog‘i ham farz, ham qarz. Hech kim, hech bir davlat organi, mansabdor shaxs, tadbirkor èki boshqa biror fuqaro qonunga

bo'ysunish va unga so'zsiz rioya etish majburiyatidan xoli bo'lishi mumkin emas. Chinakam demokratik jamiyatda hamisha shunday bo'ladi.

Qonunning ustuvorligi har qanday davlat va jamiyat haetining muqaddas tamoyillaridan biridir. Jamiyatda qonuniylik tantana qilmasa, shaxsning huquq va erkinliklari qat'iy intizom, ichki uyushqoqlik va ma'suliyat jihatdan ustuvor bo'lmasa, qonunlar, milliy an'analar, urf-odatlar, umuminsoniy qadriyatlar hurmat qilinmasa, demokratik huquqiy davlatni tasavvur qilib bo'lmaydi. Qonunga og'ishmay itoat etilgan jamiyatdagina demokratiya qaror topadi va mustahkam bo'ladi. Qonunga itoatkorlik - bu yuksak madaniyatlilik, ma'naviyatlilik, ma'rifatlilik belgisidir. Qonunga itoatkorlikni insonning unga ko'r-ko'rona bo'ysunishi ma'nosida tushunmaslik kerak. Qonunning maqsad va vazifalarini, ma'nosi-yu insonparvarlik mohiyatini ongli ravishda tushunib olish unga ixtiëriy rioya qilishga va uning asosida faoliyat yuritishga ërdam beradi. Boshqacha qilib aytganda, qonunga itoatkorlik, eng avvalo, qonunlarni puxta bilishni va ularga rioya qilib yashashni taqozo etadi. Qonunlarni bunday bilish davlatga ham, fuqarolarga ham birday xos va foydali fazilat bo'lishi lozim. Qaysi bir jamiyaitda qonun bajarilmay qog'ozda qolib ketsa, unday jamiyat aslo ravnaq topmaydi, adolatga erisha olmaydi. Qonun amalda bo'lishi lozim. Qonun qabul qilindimi, uning ijrosi ham qat'iy bo'lmog'i zarur. [1]

Konstitutsiyamizni maxsus tarzda muhofaza qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi tashkil etilgan bo'lib, mazkur sud "...qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat hujjatlarining Konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risidagi ishlarni ko'radi", "O'zbekiston Respublikasi qonunlarining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlarining, xukumat, mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlarining O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlaydi". [5] Xuloca qilib aytganda qonunning kuchi, obro'si, ta'siri, amaliy ahamiyati haetda uni halol, haqqoniy, odilona tatbiq etilishidadir. Agar qonun ijrochilari burchlari va mas'uliyatlariga xolisona, odilona ëndashib, to'g'ri yo'ldan toymay, g'irromlik qilmay, el-yurt, Vatan, davlat manfaati va taqdirini o'zlari uchun oliy maqsad deb hisoblab qonunlarni turmushga adolatli qo'llasalar, bundan davlat va jamiyat ham, xalq ham eng ko'p naf ko'radi.

O'zbekiston Konstitutsiyasi referendum - 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha umumxalq

referendumi o‘tkazildi. Bu referendum “Konstitutsiya o‘zimizniki” va “Befarq emamsan” shiorlari ostida o‘tkazildi. O‘zbekiston Konstitutsiyasini yangilash zarurati 2021-yil 6-oktabr kuni ikkinchi muddatga saylangan prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan aytilgan. Yangi tahrirdagi konstitutsiya zamon talabiga muvofiq takomillashtirilishi kerakligi alohida ta’kidlangan. 2022-yil 20-may kuni Konstitutsiyaviy islohotlar bo‘yicha komissiya tarkibi tasdilangan. Komissiya tarkibidan Akmal Saidov, Murod Kamolov, Qutbiddin Burxonov, Aktam Hayitov, Alisher Qodirov, Odiljon Tojiyev, Mirakbar Rahmonqulov, Shuhrat Cho‘lliyev, Muxtabar Xusanova, Rahim Hakimov, Mirafzal Miroqulov, Gulnoza Ma‘rufova kabi mas‘ullar joy olgan. 26-maydan fuqarolardan “Mening Konstitutsiyam” portal, Telegramm-bot va koll-markaz orqali taklif yig‘ish boshlandi. Hududlar taqsimoti bo‘yicha Toshkent shahri eng faol ekanligi va ular berayotgan takliflarda asosan jinoyat sodir etgan mansabdorlarga beriladigan jazoni og‘irlashtirish kerakligi qayd etildi. 18-iyun kuni YEXHT Demokratik institutlar va inson huquqlari byurosi uzoq muddatli missiya rahbari Owen Murphy Oliy Majlis deputatlariga ikkita taklifni ilgari surgan. Dunyo tajribasida so‘nggi 30 yillikda 90ga yaqin davlatda Konstitutsiyaviy islohotlar o‘tkazilib, ulardan 53 tasida yangi Konstitutsiya qabul qilindi.

Hozirga kelib esa, Prezidentimizning 2022-yil 27-iyundagi “Ommaviy axborot vositalarini qo‘llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari tog‘risida”gi qarori 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish, shuningdek ommaviy axborot vositalarining qonuniy mafaatlari himoya qilish, kuchaytirish, ular faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashda yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Bunday imkoniyatlar media sohasi vakillari mamlakatimizda kechayotgan yangilanish jarayonlarida har qachongidan ham faol, holis,halol va juda mas‘uliyatli bo‘lishni talab etmoqda. So‘z erkinligi konstitutsiyaviy jihatdan kafolatlangan jamiyatda albatta, bu huquqdan foydalanishning muayyan tartibga solingan qonun-qoidalar ham mavjud bo‘ladi. Shu bois taklif etilgan konstitutsiyaviy qonun loyihasining 67-moddasida “Ommaviy axborot vositalari o‘zlari taqdim etadigan axborotning tog‘riligi uchun javobgardir”, degan norma kiritilgan soha vakillarining axborotni olish, tog‘riligini tekshirish va tarqatish borasidagi mas‘uliyatini yanada oshirishga turtki bo‘lgan.

Xulosa o‘rnida shuni takidlashimiz joizki, konstitutsiya davlatimizning ko‘p asrlik tarixiy yo‘li tajribasi va uzluksizligini o‘zida jamladi, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimining poydevoriga aylandi, konstitutsiyaviy tuzilish prinsplarni

tasdiqlab, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va majburiyatlarini belgilab berdi. Mustaqil taraqqiyot yillarida Konstitutsiyamiz yurtimizda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati, erkin bozor munosabatlari va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni qurish, xalqimiz uchun tinch, obod va farovon hayot barpo etish, O‘zbekistonning xalqaro maydonda munosib o‘rin egallashida mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida ilgari surilayotgan keng ko‘lamli vazifalar, xususan, adolatli va xalqparvar davlatni barpo etish, imson huquq va manfaatlari, qadr-qimmatini yanada samarali ta‘minlash kabi ulug‘vor maqsadlar bu borada zarur huquqiy asosni ta‘min;ovchi konstitutsiyaviy makonni yanada takomillashtirish ehtiyojini kun tartibiga aylantirilmogda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yangi O‘zbekiston strategiyasi Toshkent 2021.
2. Shavkat Mirziyoev. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalishg sari. 4-jild, T., “O‘zbekiston”, 2020.
3. Shavkat Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T: “O‘zbekiston”, 2021.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaati. “Xalq so‘zi”, 2022 yil, 21 dekabr.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvar № PF-60 sonli “2022- 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. Lex UZ on-line.
6. Dadasheva A.A.. INSON HUQUQLARI BO‘YICHA XALQARO INSTITUTLAR (2023) (17), 87-90.
7. “КОНСТИТУЦИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН” Yuridik adabiyotlar publish 2023.
8. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi “ O‘ZBEKISTON” 2023 4. Yangi O‘zbekiston Demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamalakatiga aylanmoqda Toshkent 2023
9. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi “ O‘zbekiston-Toshkent” 2023
10. O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik prosessual kodeksi Toshkent “Adolat” 2018.